BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.08.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

SAIDOV AKMAL AZIMOVICH

ROALD DAL VA XUDOYBERDI TO‘XTABOYEVLARNING MUALLIFLIK KORPUSLARI ASOSIDA IJODKOR USLUBIGA XOS XUSUSIYATLAR TADQIQI

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Buxoro – 2026

UDK: 821.111.09-93+821.512.133.09-93

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

The contents of the dissertation abstract for the degree of Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences

Saidov Akmal Azimovich
Roald Dal va Xudoyberdi To‘xtaboyevlarning mualliflik korpuslari asosida ijodkor uslubiga xos xususiyatlar tadqiqi 3

Саидов Акмал Азимович
Исследование особенностей авторского стиля на основе авторских корпусов Роальда Даля и Худойберди Тухтабаева 25

Saidov Akmal Azimovich
A study of authorial stylistic features based on the author corpora of Roald Dahl and Khudoyberdi Tukhtaboyev 51

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works.....55

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.08.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

SAIDOV AKMAL AZIMOVICH

ROALD DAL VA XUDOYBERDI TO‘XTABOYEVLARNING MUALLIFLIK KORPUSLARI ASOSIDA IJODKOR USLUBIGA XOS XUSUSIYATLAR TADQIQI

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Buxoro – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/Fil5764 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Ataboyev Nozimjon Bobojon o‘g‘li** filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Rasmiy opponentlar:	**Qarshiboyeva Uljan Davirovna** filologiya fanlari doktori (DSc), professor
	Qodirova Fazilat Shukurovna filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Yetakchi tashkilot:	**Qo‘qon davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc.03/2025.27.12.Fil.08.08 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil «25» noyabr soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-29-14; faks: (0 365) 221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№1134 raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «12» noyabr kuni tarqatildi.

(2026-yil «12» noyabr dagi 26-22 - raqamli reestr bayonnomasi.)

O.M. Fayzulloyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

M.R. Ochilova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor

Z.Q. Amonova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon gumanitar tadqiqotlarida badiiy matnlarni raqamlashtirish, mualliflik korpuslarini yaratish va stilometrik tahlilni standartlashtirish adabiyotshunoslikning muhim ilmiy infratuzilmasiga aylanmoqda. ELTeC tajribasida 2017–2022-yillarda 12 tildagi asosiy va 9 tildagi qo‘shimcha roman korpuslari shakllantirilib, 2023-yil mart holatida 1544 dan ortiq to‘liq matnli roman ochiq ilmiy muomalaga kiritilgani korpus yondashuvining xalqaro miqyosdagi amaliy ko‘lamini ko‘rsatadi. Roald Dal merosi bo‘yicha 300 milliondan ortiq kitob sotilgani va asarlarining 63 tilga tarjima qilingani uning bolalar adabiyotidagi global qabul doirasini tasdiqlaydi. Xudoyberdi To‘xtaboyev nasrining o‘zbek bolalar kitobxonligidagi mavqei bilan birga qaralganda, bu ikki ijodkor matnlarini korpus asosida qiyosiy o‘rganish transmilliy adabiy jarayon, tarjima amaliyoti va bolalar nasrini yangi empirik asosda talqin qilish zaruratini yuzaga chiqaradi.

Dunyo bo‘yicha ushbu mavzuga oid tadqiqotlar stilometriya, mualliflik atributsiyasi, korpus stilistikasi, tabiiy tilni qayta ishlash va ko‘p tilli modellashtirish kesimida rivojlanmoqda. 1968–2021-yillar oralig‘idagi 905 ta Scopus hujjatiga tayangan bibliometrik tahlil stilometriyada mualliflik atributsiyasi, mashinaviy o‘rganish va tabiiy tilni qayta ishlash eng faol kalit yo‘nalishlar ekanini ko‘rsatadi. PAN 2024 tajribalarida esa ko‘p muallifli matnlarda yozuv uslubi almashuvini paragraf darajasida aniqlash uchun mavzu birxilligi turlicha bo‘lgan sinov korpuslari qo‘llangani metodologik nazorat va verifikatsiya talablarining kuchayayotganini bildiradi. Bunday izlanishlar adabiy matnni faqat talqin obyekti emas, balki tekshiriladigan, qayta ishlanadigan va qiyosiy modellashtiriladigan ma’lumotlar tizimi sifatida ko‘rishga olib kelmoqda. Shu bois, bolalar nasrini korpus-stilometrik usullar asosida o‘rganish zamonaviy adabiyotshunoslikning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda davlat tili maqomini yanada mustahkamlash, o‘zbek tili va adabiyotini raqamlashtirish, milliy adabiy merosni elektron muhitda tizimlashtirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar adabiy matnlarni korpus asosida o‘rganish zaruratini kuchaytirmoqda. “… sun’iy intellekt dasturlari samarali ishlashi uchun ular, avvalo, o‘zbek tilini mukammal darajada tushunishi zarur”… “O‘zbek tilidagi adabiyotlar, ma’lumotlar, maqolalar, hisobotlar, ilmiy ishlarni raqamlashtirish, sun’iy intellekt milliy madaniyatimiz va qadriyatlarimizni o‘zida ifodalay olishi uchun “O‘zbek tili korpusi”ni yaratish zarur”.[1] Shunday ekan, Xudoyberdi To‘xtaboyev nasrining elektron mualliflik korpusini shakllantirish, uni Roald Dal asarlarining korpus ma’lumotlari bilan qiyosiy o‘rganish, bolalar nasrida muallif uslubi, leksik-semantik qatlam, obraz yaratish, matn qurilishi va tarjimaviy talqin xususiyatlarini empirik asosda aniqlash ushbu ilmiy ishning zaruriyatini belgilaydi.

So‘nggi yillarda qabul qilingan me’yoriy-huquqiy hujjatlar mazkur mavzuning institutsional asosini mustahkamlaydi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini

takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlarida davlat tilining nufuzini oshirish, o‘zbek tilini raqamli muhitda rivojlantirish va elektron o‘zbek tili milliy korpusini yaratish kabi vazifalar belgilangan. 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-son qaror kitob mahsulotlarini nashr etish, tarqatish va kitobxonlik madaniyatini targ‘ib qilish tizimini rivojlantirishga qaratilgan. 2020-yil 14-dekabrdagi 781-son qaror orqali tasdiqlangan 2020–2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash milliy dasturi bolalar va yoshlar o‘qish muhitini tizimli qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi. 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish orqali qiyosiy adabiy va tarjimaviy tahlil uchun metodik maydonni kengaytiradi. 2024-yil 12-yanvardagi PQ-19-son “Xorijiy davlatlarda O‘zbekiston tarixi va madaniyati, o‘zbek tili va adabiyotini o‘rganishni keng targ‘ib qilish orqali turistlar oqimini ko‘paytirish hamda mamlakatimiz nufuzini yanada oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaror esa o‘zbek tili va adabiyotini xalqaro miqyosda targ‘ib etish vazifalari bilan bevosita bog‘liqdir.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 3-martdagi 117-son “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 11-martdagi 139-son “O‘zbek tili va adabiyoti bo‘yicha fundamental va amaliy tadqiqotlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari ham ushbu yo‘nalishdagi ilmiy izlanishlar uchun muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Mazkur me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda R. Dal va X. To‘xtaboyev ijodini korpus asosida qiyosiy o‘rganishga bag‘ishlangan ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida amalga oshirilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Adabiy korpus-lingvistikasi va korpus stilistikasi bo‘yicha xorijlik olimlardan T. McEnery, A. Hardie, D. Biber, S. Conrad, R. Reppen, S. Hunston, E. Tognini-Bonelli, E. Semino, M. Short, M. Mahlberg, D. Hoover, J. Burrows, E. Stamatatos, P. Juola va M. Eder izlanishlar olib borishgan[1].

[1] McEnery T., Hardie A. Corpus Linguistics: Method, Theory and Practice. – Cambridge: Cambridge University Press, 2012. URL: doi.org; Biber D., Conrad S., Reppen R. Corpus Linguistics: Investigating Language Structure and Use. – Cambridge: Cambridge University Press, 1998. URL: doi.org; Hunston S. Corpora in Applied Linguistics. – Cambridge: Cambridge University Press, 2002. URL: cambridge.org; Tognini-Bonelli E. Corpus Linguistics at Work. – Amsterdam, Philadelphia: John Benjamins, 2001. URL: doi.org; Semino E., Short M. Corpus Stylistics: Speech, Writing and Thought Presentation in a Corpus of English Writing. – London, New York: Routledge, 2004. URL: doi.org; Mahlberg M. Corpus Stylistics and Dickens’s Fiction. – London, New York: Routledge, 2013. URL: doi.org; Hoover D. Corpus Stylistics, Stylometry, and the Styles of Henry James // Style. – 2007. – Vol. 41, No. 2. – P. 174–198. URL: jstor.org; Burrows J. “Delta”: A Measure of Stylistic Difference and a Guide to Likely Authorship // Literary and Linguistic Computing. – 2002. – Vol. 17, No. 3. – P. 267–287. DOI: 10.1093/llc/17.3.267. URL: doi.org; Stamatatos E. A Survey of Modern Authorship Attribution Methods // Journal of the American Society for Information

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (MDH) davlatlarida korpus-lingvistikasi va korpus idiostilistikasi borasidagi ilmiy-nazariy asoslarni V. Zaharov, S. Bogdanova, E. Korniyenko, T. Litvinova, L. Kuzmina va L. Shestakova tadqiq etishgan. Shuningdek, mualliflik atributsiyasi va idiostilni korpus asosida tavsiflash bo‘yicha Z. Rezanova, A. Romanov, R. Meshcheryakov, A. Khomenko va P. Panicheva ilmiy tadqiqot ishlari olib borishgan[2].

O‘zbekistonda o‘zbek tili korpuslarini yaratish va lingvistik ta’minlash nazariy-uslubiy masalalari A. Eshmo‘minov, D. Axmedova va G. Toirova tomonidan ko‘rib chiqilgan. Xususan, mualliflik korpusi masalalari bo‘yicha Sh. Xamroyeva, J. Lutfullayev va R. To‘labayeva ilmiy izlanishlar olib borishgan[3]. Mahalliy korpusshunoslikda mualliflik korpusi, milliy korpus, diaxronik korpus, ta’limiy korpus, parallel korpus, idiomalar bazasi va kontekstual qidiruv tizimi kabi yo‘nalishlar Sh. Xamroyeva, A. Raxmanova, N. Ataboyev, G. Begmatova, O‘. Xoliyorov, R. Karimov, A. Axmedova va Z. Xaitqulov tadqiqotlarida mustaqil ilmiy obyekt sifatida ishlab chiqilgan.[4]

Science and Technology. – 2009. – Vol. 60, No. 3. – P. 538–556. DOI: 10.1002/asi.21001. URL: doi.org; Juola P. Authorship Attribution // Foundations and Trends in Information Retrieval. – 2008. – Vol. 1, No. 3. – P. 233–334. DOI: 10.1561/1500000005. URL: doi.org; Eder M. Mind Your Corpus: Systematic Errors in Authorship Attribution // Literary and Linguistic Computing. – 2013. – Vol. 28, No. 4. – P. 603–614. URL: doi.org

[2] Захаров В. П., Богданова С. Ю. Корпусная лингвистика: учебник для студентов гуманитарных вузов. – Иркутск: ИГЛУ, 2011. URL: pureportal.spbu.ru; Захаров В. П. Пролегомены к корпусной лингвистике // Вопросы психолингвистики. – 2016. – № 28. – С. 150–161. URL: cyberleninka.ru; Корниенко Е. Р. Идиолект и идиостиль: к вопросу о соотнесении понятий // Филология: научные исследования. – 2019. – № 1. URL: cyberleninka.ru; Литвинова Т. А. Идиолект как объект корпусной идиолектологии: к становлению нового лингвистического направления // Ученые записки Новгородского государственного университета. – 2019. – № 7(25). – С. 1–5. URL: portal.novsu.ru; Резанова З. И., Романов А. С., Мещеряков Р. В. О выборе признаков текста, релевантных в автороведческой экспертной деятельности // Вестник Томского государственного университета. Филология. – 2013. – № 6(26). – С. 38–52. URL: journals.tsu.ru; Хоменко А. Лингвистическое моделирование как основа для создания полуавтоматического атрибуционного алгоритма // Политическая лингвистика. – 2022. – № 3(93). – С. 90–100. URL: politlinguistika.ru; Panicheva P., Litvinova T. Authorship Attribution in Russian in Real-World Forensics Scenario // Statistical Language and Speech Processing. – 2019. – P. 299–310. DOI: 10.1007/978-3-030-31372-2_25. URL: doi.org; Kuzmina L. The National Corpus of the Russian Language as a Tool for Studying Precedent Signs of High Culture with the Source Sphere Russian Classical Literature // Philology. Theory & Practice. – 2022. – Vol. 15, No. 9. – P. 2860–2869. DOI: 10.30853/phil20220498. URL: doi.org; Shestakova L., Kuleva A. Author Lexicography in the Digital Age // Terra Linguistica. – 2023. – Vol. 14, No. 3. – P. 94–113. DOI: 10.18721/JHSS.14308. URL: doi.org

[3] Эшмўминов А. А. Ўзбек тили миллий корпусининг синоним сўзлар базаси. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Қарши, 2019. URL: diss.natlib.uz; Ахмедова Д. Б. Атов бирликларини ўзбек тили корпуслари учун лексик-семантик теглашнинг лингвистик асос ва моделлари. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Бухоро, 2020. URL: diss.natlib.uz; Тоирова Г. И. Ўзбек тили миллий корпусини яратишнинг назарий ва амалий масалалари. Филология фанлари доктори (DSc) диссертацияси. – 2024. URL: diss.natlib.uz; Хамроева Ш. М. Ўзбек тили муаллифлик корпусини тузишнинг лингвистик асослари. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Қарши, 2018. URL: diss.natlib.uz; Лутфуллаев Ж. А. Ўзбек болалар адабиёти романчилигининг тараққиёт тамойиллари ва Худойберди Тўхтабоев ижоди. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – 2024. URL: diss.natlib.uz; Тўлабаева Р. С. Худойберди Тўхтабоев романларида бадиий психологизм. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – 2021. URL: diss.natlib.uz

[4] Xamroyeva Sh. M. O‘zbek tili mualliflik korpusini tuzishning lingvistik asoslari. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Buxoro, 2018. – 252 b. URL: diss.natlib.uz; Raxmanova A. A. O‘zbek tili milliy korpusini yaratishdagi kompyuter usullari. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2021. – 161 b.; Begmatova G. X. O‘zbek milliy korpusida idiomalar bazasini yaratish. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Termiz, 2021. – 143 b.; Xoliyorov O‘. M. O‘zbek tili ta’limiy korpusini tuzishning lingvistik asoslari. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Termiz, 2021. – 181 b.; Karimov R. A. O‘zbek-ingliz parallel korpusini tuzishning lingvistik va dasturiy masalalari. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Buxoro, 2022. – 148 b.; Axmedova A. N. Parallel korpusda o‘xshatishlarning leksik-semantik munosabatlari (inglizcha-o‘zbekcha, o‘zbekcha-inglizcha parallel matnlar

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Buxoro davlat universiteti Xorijiy tillar fakulteti Ingliz adabiyotshunosligi va tarjimashunoslik kafedrasining "Adabiyotshunoslik va tarjima muammolarining zamonaviy yechimlari" mavzusidagi tadqiqotlar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi R. Dal va X. To'xtaboyevlarning mualliflik korpuslarini yaratish orqali ijodkorlar uslubiga xos xususiyatlarni ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

korpus-lingvistikasida mualliflik korpuslarini yaratish amaliyoti, uning ahamiyati va tamoyillarini mavjud mualliflik korpuslari tahlili asosida ochib berish;

R. Dal va X. To'xtaboyev ijod namunalari misolida mualliflik korpusini yaratish amaliyotini tavsiflash;

R.Dal va X.To'xtaboyev asarlarida leksik qatlamning qo'llanilishiga oid korpus tahlil natijalarini empirik o'rganish;

R. Dal va X. To'xtaboyev asarlari mualliflik korpusi tahlillarida sintaktik shakl va munosabatlar tahlilini amalga oshirish;

R. Dal va X. To'xtaboyev mualliflik korpuslarida ijodiy o'ziga xoslikning statistik asoslarini tavsiflash.

Tadqiqotning obyekti sifatida R. Dalning "James and the Giant Peach", "Charlie and the Chocolate Factory", "Charlie and the Great Glass Elevator", "The BFG", "Matilda" hamda X.To'xtaboyevning "Sariq devni minib", "Sariq devning o'limi", "Besh bolali yigitcha", "Shirin qovunlar mamlakati yoki sehrgarlar jangi" kabi asarlari tanlangan.

Tadqiqotning predmetini bolalar adabiyoti namoyondalari sifatida R. Dal va X. To'xtaboyevlarning mualliflik korpusida leksik qatlamning qo'llanilishi, sintaktik shakl va munosabatlar asosida ijodiy o'ziga xoslik tahlillari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiyada korpus-lingvistik, tavsiflash metodi, qiyoslash va mantiqiy umumlashtirish usullari, komponent, empirik va konseptual tahlil metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiliklari quyidagilardan iborat:

korpus-lingvistikasida mualliflik korpuslarini yaratish amaliyoti, uning ahamiyati va tamoyillarini mavjud mualliflik korpuslari tahlili asosida muallifning idiostilini belgilovchi korpusga asoslangan xossalar tarkibiga so'zlarning qo'llanilish chastotasi, gap tuzilishi statistikasi, type-token miqdoriy taqsimot ko'rsatkichlarining kirishi ilmiy asoslangan;

R. Dal va X. To'xtaboyev ijod namunalari misolida yaratilgan mualliflik korpusiga kiritilgan asarlarning leksik qatlamiga xos arxaizm, neologizm va okkazionalizmlar, jumladan, okkazional nominatsiya hodisasining qo'llanilishiga oid yozuvchilar idiostili korpus tahlili natijalarini empirik o'rganish asosida ochib berilgan;

R. Dal va X. To'xtaboyev asarlari mualliflik korpusi tahlillarida sintaktik gap

misolida). Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2021. – 151 b.; Xaitqulov Z. X. Tarjimani avtomatlashtirishda parallel korpus kontekstual qidiruv tizimining funksional mohiyati. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2024. – 178 b.

qurilmalari tasnifi, xususan, tuzilishiga koʻra sodda va murakkab; ifoda maqsadiga koʻra soʻroq, undov va darak; gap tarkibidagi soʻzlar sonining farqliligiga koʻra turlarga boʻlib tahlil qilish imkoniyati orqali bolalar adabiyotiga xos soddalik, his-hayajonlilik va qisqalik kabi tamoyillarning ustuvorligi aniqlangan;

korpus statistik tahlillari asosida R. Dal ijodida auktorial narratorlik, okkazionalizm hamda antroponimik ijodkorlik va X. Toʻxtaboyev ijodida birinchi shaxs narratsiyasi, paremiologik hamda aforistik boy uslubning ustuvorligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat: Ingliz va oʻzbek bolalar adabiyoti namoyandalari R. Dal va X. Toʻxtaboyev asarlari asosida mualliflik korpusi shakllantirildi. Mazkur korpus https://corpora.softgo.uz/ elektron platformasida (Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2026-yil 23-iyuldagi DGU 67830-son guvohnomasi) ochiq dostupda faol havolada ishlamoqda.

Tadqiqot asosida yaratilgan platforma soʻzlarni qidirish, chastotasini aniqlash, yuqori chastotali birliklar roʻyxatini shakllantirish, soʻzshakllarni morfologik va semantik teglash, muayyan birliklarning matnda qoʻllanilishini kuzatish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalaridan qiyosiy adabiyotshunoslik, chogʻishtirma tilshunoslik, korpus-lingvistikasi, bolalar adabiyoti, tarjimashunoslik, stilistika va leksikografiya yoʻnalishlari boʻyicha ilmiy izlanishlar olib borishda, oʻquv qoʻllanmalar, metodik tavsiyanomalar hamda maxsus kurslar ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

Mazkur tadqiqot doirasida olingan natijalar ingliz va oʻzbek bolalar adabiyotida muallif idiostilini aniqlash, qahramon nutqi, dialoglar qurilishi, tasviriy ifoda vositalari va milliy-uslubiy farqlarni korpus asosida oʻrganishning amaliy mexanizmlarini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi zamonaviy tilshunoslikka xos metod va nazariy manbalardan foydalanish, korpus-lingvistikasi qiyosiy tilshunoslik, nazariy grammatika fanlarida shakllangan ilmiy qarashlar yordamida muammoni hal qilishning tayanch usullariga murojaat qilgan holda amalga oshirilganligi bilan asoslanadi. Shuningdek, chiqarilgan xulosalarning qat'iyligi, qoʻllanilgan yondashuv va metodlar hamda ularning nazariy asoslari badiiy adabiyotlardan olingan misollar tahlili bilan muvofiqligi isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. R. Dal va X. Toʻxtaboyev asarlarining mualliflik korpuslari asosida qiyosiy oʻrganilgani, yozuvchilar idiostiliga xos leksik-semantik, sintaktik va narrativ xususiyatlarning aniqlangani hamda statistik koʻrsatkichlarni badiiy talqin bilan uygʻunlashtirib tahlil qilish imkoniyatlarining asoslangani bilan belgilanadi. Mualliflik korpuslarini shakllantirish tamoyillari, yozuvchilarning soʻz tanlovi, qahramonlar nutqi, dialog qurilishi va badiiy ifoda vositalariga oid xulosalar ingliz va oʻzbek bolalar nasridagi umumiy hamda milliy-uslubiy xususiyatlarni izohlashga xizmat qiladi. Ishda ilgari surilgan nazariy qarashlar va tahlil natijalaridan qiyosiy adabiyotshunoslik, korpus stilistikasi va bolalar adabiyoti doirasida ijodkorning individual uslubini oʻrganishga qaratilgan keyingi tadqiqotlarda ilmiy-nazariy manba sifatida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati uning natijalaridan kognitiv tilshunoslik, ingliz tili nazariy grammatikasi, qiyosiy tilshunoslik, semantika

sohalari bo‘yicha maxsus seminarlar tashkil qilish, til ta’limi amaliyotida, o‘quv adabiyotlarining yangi avlodini tayyorlashda keng foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi. Bundan tashqari, tadqiqot materiali til o‘rganuvchilarda leksik, grammatik vositalarni o‘rinli qo‘llash kompetensiyasini rivojlantirishda, sintaktik-semantik munosabatlarni anglashda xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

Korpus-statistik tahlillar asosida R. Dal ijodida auktorial narratsiya, okkazional birliklar hamda antroponimik ijodkorlikning, X. To‘xtaboyev ijodida esa birinchi shaxs narratsiyasi, paremiologik birliklar va aforistik ifodalarga boy uslubning ustuvorligi ilmiy jihatdan isbotlanganiga oid yangiligidan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2022-2024 – yillarda bajarilgan IL-402104209-sonli “Axborot qidiruv tizimlari (Google, Yandex, Google Translate) uchun avtomatik ishlov berish vositasi — o‘zbek tilining morfoleksikoni va morfologik analizatori dasturiy vositasini yaratish” mavzusidagi innovatsion loyihasi doirasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2026-yil 10-avgustdagi №01/4-3619-son ma’lumotnomasi). Natijada, o‘zbek tilidagi badiiy matnlarga avtomatik ishlov berish, so‘zshakllarni morfologik va leksik-semantik jihatdan tavsiflash, morfoleksikon bazasini boyitish, matndagi mualliflik-uslubiy belgilarni aniqlash hamda morfologik analizatorning lingvistik imkoniyatlarini takomillashtirishga xizmat qilgan;

R. Dal va X. To‘xtaboyev ijod namunalari misolida korpus statistik tahlillari asosida R. Dal ijodida auktorial narratorlik, okkazionalizm hamda antroponimik ijodkorlikning ustuvorligi, X. To‘xtaboyev ijodida esa birinchi shaxs narratsiyasi, paremiologik birliklar hamda aforistik jihatdan boy uslubning etakchiligiga oid xulosalardan Yevropa Ittifoqi tomonidan 2025-2026-yillarda moliyalashtirilgan Erasmus+ International Mobility (KA171) loyihasi doirasida Pavol Jozef Šafárik universiteti bilan hamkorlikda o‘tkazilgan “British and American Studies – Britaniya va Amerika tadqiqotlari” nomli loyihasi doirasida foydalanilgan (Buxoro davlat universitetining 2026-yil 8-avgustdagi № 5980-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, loyiha doirasida ilmiy-metodik ishlarni boyitishga xizmat qilgan;

R. Dal ijodida auktorial narratsiya, okkazional birliklar hamda antroponimik ijodkorlikning, X. To‘xtaboyev ijodida esa xalqona og‘zaki bayon, sodda sintaktik qurilmalar, emotsional undov va so‘roq gaplar, qahramon nutqiga xos jonlilik hamda bolalar adabiyotiga xos qisqa va ta’sirchan ifoda shakllarining ustuvorligi ilmiy jihatdan isbotlanganiga oid yangiligidan “Umrboqiy meros” O‘zbekiston madaniyati va san’ati targ‘iboti markazining 2022–2025-yillarda Yaponiya akademik almashinuv xizmati IRCI tomonidan moliyalashtirilgan APC2C/10-sonli “Sustainable Collection of Research Data for the Protection of Intangible Cultural Heritage: Focus on Central Asia and Small Island Developing States (2022–2025 Fiscal Year)” nomli xalqaro loyihasi doirasida foydalanilgan (“Umrboqiy meros” O‘zbekiston madaniyati va san’ati targ‘iboti markazining 2026-yil 9-avgustdagi 26-son ma’lumotnomasi). Natijada, xalq og‘zaki ijodi, milliy-madaniy birliklar, urf-odat, an’ana, qadriyat va obrazlar tizimini raqamli yondashuv asosida o‘rganish hamda X. To‘xtaboyev asarlarining xalqona va badiiy-uslubiy xususiyatlarini

korpus asosida tahlil qilish orqali loyiha materiallarining ilmiy-amaliy mazmunini boyitishga xizmat qilgan;

Tadqiqotda mualliflik korpusi oddiy elektron matnlar to‘plami emas, balki ijodkor uslubini aniq statistik ma’lumotlar asosida o‘rganishga xizmat qiluvchi ilmiy vosita sifatida asoslangan. Mazkur natijalar loyiha doirasida tayyorlangan ilmiy maqolalar, tezislar va tadqiqot materiallarida badiiy matnni zamonaviy raqamli metodlar asosida tahlil qilish, yoshlar orasida milliy adabiy merosni ilmiy asosda targ‘ib etish hamda korpus-lingvistikasi yondashuvlarini amaliyotga tatbiq etishga oid yangiligidan Oliy Majlis huzuridagi Jamoat fondi tomonidan “Umrboqiy meros” nodavlat notijorat markaziga ajratilgan 81–12/202 sonli “Milliy qadriyatlar – yoshlar ardog‘ida” davlat loyihasi doirasida foydalanilgan (“Umrboqiy meros” O‘zbekiston madaniyati va san’ati targ‘iboti markazining 2026-yil 9-avgustdagi 27-son ma’lumotnomasi). Natijada, xalq og‘zaki ijodi, milliy-madaniy birliklar, urf-odat, an’ana, qadriyat va obrazlar tizimini raqamli yondashuv asosida o‘rganish hamda X. To‘xtaboyev asarlarining xalqona va badiiy-uslubiy xususiyatlarini korpus asosida tahlil qilish orqali loyiha materiallarining ilmiy-amaliy mazmunini boyitishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot yakunlari bo‘yicha jami 7 ta ilmiy maqola chop etilib, shundan 3 tasi xalqaro ilmiy bazalarda indekslangan xorijiy jurnallarda, 4 tasi O‘zR OAK tasarrufidagi nashrlarda e’lon qilindi.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi: Dissertatsiya kirish, uchta asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovadan iborat. Ishning umumiy hajmi 149 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, ilmiy-amaliy ahamiyati, tadqiqot metodlari, natijalarning ishonchliligi, aprobatsiyasi, e’lon qilingan ishlar hamda dissertatsiyaning tuzilishi haqida ma’lumot berilgan. Qolaversa, ushbu bo’limda jahon gumanitar tadqiqotlarida badiiy matnlarni elektron shaklda jamlash, muallif idiostilini statistik va lingvistik ko‘rsatkichlar asosida aniqlash, bolalar adabiyotidagi uslubiy xususiyatlarni raqamli metodlar yordamida tahlil qilish masalalari dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biri sifatida yoritilgan. Shuningdek, O‘zbekistonda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish, o‘zbek tilining raqamli resurslarini yaratish, elektron korpuslar va ta’limiy platformalarni shakllantirish borasidagi vazifalar mazkur tadqiqotning ijtimoiy, ilmiy va amaliy ahamiyatini kuchaytirishi ko‘rsatib berilgan.

Dissertatsiyaning **birinchi bobi “Mualliflik korpuslarini yaratish amaliyoti va nazariy asoslari”** deb nomlanadi. Mazkur bobda mualliflik korpusi tushunchasining nazariy mohiyati, uning korpus-lingvistikasi, korpus stilistikasi, stilometriya, mualliflik atributsiyasi, kompyuter leksikografiyasi va raqamli gumanitar fanlar bilan aloqasi tahlil qilingan. Bobda korpus oddiy elektron matnlar

yig‘indisi emas, balki muayyan ilmiy maqsad asosida tanlangan, tizimlashtirilgan, metama’lumotlar bilan ta’minlangan va lingvistik tahlilga tayyorlangan ilmiy resurs sifatida talqin qilingan.

Birinchi bobning **1.1-faslida** mualliflik korpuslarini yaratish korpus-lingvistikasining tarmoq masalalari doirasida o‘rganilgan. Unda “korpus”, “mualliflik korpusi”, “badiiy matn korpusi”, “idiostil”, “idiolekt”, “korpus stilistikasi”, “stilometriya”, “mualliflik atributsiyasi” kabi tayanch tushunchalarning ilmiy talqinlari yoritilgan. G‘arb, MDH va O‘zbekiston ilmiy maktablarida korpus-lingvistikasi va mualliflik korpusi haqidagi qarashlar qiyosiy tahlil qilingan. Mualliflik korpusi tilshunoslik, adabiyotshunoslik, stilistika, matnshunoslik va raqamli gumanitar fanlar tutashgan nuqtada shakllanadigan murakkab ilmiy obyekt sifatida asoslangan.

Ushbu faslda mualliflik korpusi muallifning shaxsiy til xususiyatlarini, leksik tanlovini, sintaktik odatlarini, semantik dominantalarini va badiiy-pragmatik strategiyalarini aniqlashga xizmat qilishi ko‘rsatib berilgan. Idiolekt va idiostil tushunchalari o‘zaro farqlangan: idiolekt muallif yoki qahramon nutqidagi takrorlanuvchi til birliklari bilan bog‘liq bo‘lsa, idiostil bundan kengroq bo‘lib, obraz yaratish, voqeani qurish, dialogik nutqni tashkil etish va badiiy tafakkur tizimini ham qamrab olishi asoslangan.

Nazariy adabiyotlar sharhi uch mustaqil ko‘ringan yo‘nalish aslida bitta mualliflik korpusi modelida tutashishini ko‘rsatadi. Bu bog‘lanishni sxematik shaklda ifodalash keyingi ta’rif va amaliy dizayn o‘rtasidagi o‘tishni aniqroq qiladi (1-rasmga qarang).



1-rasm. Mualliflik korpusi nazariyasining uch tayanch zanjiri

Sxemada korpus-lingvistikasi dalil va reprezentativlikni, badiiy matn nazariyasi idiostil va poetik dominantani, stilometriya esa muallifiy signalning tekshiriladigan tomonini beradi. Demak, Dal-To‘xtaboyev korpusi faqat elektron yig‘ma emas, shu uch zanjirning tutashgan nuqtasida ishlaydigan ilmiy model sifatida qurilishi kerak.

Birinchi bobning **1.2-faslida** mualliflik korpuslarini yaratish tamoyillari va amaliy masalalari tahlil qilingan. Unda korpus yaratish matnlarni oddiy yig‘ish jarayoni emas, balki tanlanma mezonlarini belgilash, matnning ishonchli manbasini aniqlash, nashr variantlarini farqlash, raqamlashtirish, texnik tozalash,

metama’lumotlar tizimini yaratish, tokenizatsiya, lemmatizatsiya, morfologik va semantik belgilash kabi izchil bosqichlardan iborat murakkab ilmiy-amaliy jarayon sifatida ko‘rsatilgan.

Mazkur faslda reprezentativlik mualliflik korpusining muhim mezoni sifatida asoslanadi. Mualliflik korpusida reprezentativlik matnlarning soni yoki umumiy hajmi bilangina emas, balki tanlangan materiallar muallif idiostilining asosiy, barqaror va farqlovchi belgilarini qanchalik ochib bera olishi bilan belgilanadi. Shuningdek, korpusga asoslangan va korpusga yo‘naltirilgan yondashuvlar o‘zaro farqlangan. Birinchi yondashuv oldindan belgilangan nazariy modelni matn materiali asosida tekshirishga xizmat qilsa, ikkinchisi korpusning o‘zidan kelib chiqadigan yangi birliklar, chastotaviy naqshlar va kollokatsion munosabatlarni aniqlash imkonini beradi.

Birinchi bobning **1.3-faslida** mavjud mualliflik korpuslari va adabiy korpuslar tajribasi tahlil qilingan. G‘arb tajribasida Dickens, Shakespeare, Dostoevsky kabi mualliflar ijodiga oid raqamli korpuslar, CLiC Dickens, Digital Dostoevsky, DraCor kabi loyihalar, shuningdek, COCA va BNC kabi umumiy til korpuslari ko‘rib chiqilgan. MDH tajribasida muallif leksikografiyasi, konkordanslar, raqamli arxivlar va mualliflik atributsiyasiga oid tadqiqotlar tahlil qilingan. O‘zbekiston korpusshunosligida esa milliy korpus, ta’limiy korpus, parallel korpus, idiomalar bazasi, morfologik analizator, leksik-semantik teglash va mualliflik korpusi yaratishga oid tadqiqotlar alohida e’tirof etilgan.

Nazariy ta’rif amaliy korpusga aylanishi uchun u izchil qarorlar zanjiridan o‘tadi. Quyidagi sxema mualliflik korpusi qurilishida har bir bosqich keyingi natijaning ishonchliligiga qanday ta’sir qilishini ko‘rsatadi (2-rasmga qarang).



2-rasm. Mualliflik korpusi dizaynining qarorlar zanjiri

Sxemadagi zanjir korpus dizaynining texnik ketma-ketlik emasligini ochadi. Tadqiqot savoli noto‘g‘ri qo‘yilsa, tanlanma ham, annotatsiya ham, yakuniy stilometrik talqin ham zaiflashadi, shu bois har bir bosqichda qaror va uning sababi hujjatlashtirilishi kerak.

Birinchi bob yakunida mualliflik korpusi muallif matnlarini saqlovchi oddiy elektron ombor emas, balki individual uslubni empirik dalillar, lingvostatistik ko‘rsatkichlar va adabiy talqin asosida o‘rganishga xizmat qiluvchi ilmiy-amaliy tizim ekani asoslangan. R. Dal va X. To‘xtaboyev asarlari asosida yaratiladigan mualliflik korpusi bolalar adabiyotida idiostil, qahramon nutqi, yumor, fantastika,

dialogik qurilish va milliy-uslubiy tafovutlarni tadqiq etish uchun muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi ko‘rsatilgan.

Dissertatsiyaning **ikkinchi bobi “R. Dal va X. To‘xtaboyev asarlari misolida mualliflik korpusini yaratish amaliyoti”** deb nomlanadi. Ushbu bobda R. Dal va X. To‘xtaboyev ijod namunalari mualliflik korpusini yaratish obyekti sifatida asoslangan, tanlangan asarlarning korpusga kiritilish mezonlari, janriy-uslubiy ahamiyati, matnlarni tayyorlash bosqichlari va corpora.softgo.uz elektron platformasining imkoniyatlari yoritilgan.

Ikkinchi bobning **2.1-faslida** R. Dal ijod namunalari mualliflik korpusini yaratish obyekti sifatida tahlil qilingan. R. Dal XX asr ingliz bolalar adabiyotining yirik vakili sifatida tavsiflanib, uning ijodida fantastik-satirik bayon, grotesk obrazlar, til o‘yini, noodatiy so‘z yasalishi, bolalar va kattalar dunyosining qarama-qarshiligi, dialogik nutq hamda emotsional-ekspressiv leksika muhim o‘rin tutishi ko‘rsatib berilgan.

R. Dal subkorpusi uchun *James and the Giant Peach*, *Charlie and the Chocolate Factory*, *Charlie and the Great Glass Elevator*, *The BFG*, *Matilda* asarlari tanlangan. Ushbu asarlar yozuvchining bolalar nasridagi asosiy janriy-uslubiy qatlamlarini qamrab oladi. *James and the Giant Peach* ertak-fantastik nasrning muhim namunasi sifatida, *Charlie and the Chocolate Factory* fantastik makon va bolalar dunyoqarashini ochuvchi asar sifatida, *Charlie and the Great Glass Elevator* sarguzasht va fantastik voqeabandlikni davom ettiruvchi matn sifatida, *The BFG* til o‘yini va okkazional birliklarni o‘rganish uchun, *Matilda* esa maktab diskursi, satirik baho va bola-kattalar ziddiyatini tahlil qilish uchun muhim manba sifatida asoslangan.

Mavjud loyihalar tajribasini umumlashtirish ularning har biri dissertatsiya mavzusiga qanday metodologik saboq berishini aniqroq ko‘rsatadi. Quyidagi jadval adabiy va mualliflik korpuslarining qiyosiy profilini jamlaydi (1-jadvalga qarang).

1-jadval.

Mavjud adabiy va mualliflik korpuslarining qiyosiy profili

Loyiha yoki tajriba	Asosiy obyekt	Kuchli tomoni	Cheklovi
CLiC Dickens	Dickens romanlari va dialog qatlamlari	Konkordansni korpus stilistikasi va kognitiv poetika bilan birlashtiradi	Kanonik ingliz prozasi doirasiga kuchli bog‘langan
Shakespeare informatikasi	Dramatik matn va tarixiy nashr an’anasi	Matn talqini va raqamli modelni yirik paradigma sifatida ko‘rsatadi	Maxsus madaniy-kanonik kontekstga tayanadi
de-Corp va DraCor	Tarixiy drama va tarmoq modeli	Janrlararo, davriy va personajlararo aloqalarni modellashtiradi	Mualliflik individualigi ba’zan janr tarmog‘i ichida fonlashadi
Russian Reference Corpus	Milliy tayanch korpus	Muallif korpusi uchun tashqi me’yor beradi	Individual yozuvchi uslubini o‘zi yetarli ochmaydi
Digital Dostoevsky	Qo‘lyozma, arxiv, matn tarixi	Filologik chuqurlik va raqamli infratuzilmani birlashtiradi	Texnik va matnshunoslik talabi juda yuqori
O‘zbekiston tajribasi	Milliy korpus, morfologik analizator, ta’limiy resurs	O‘zbek tili uchun lingvistik va texnik baza yaratadi	Maxsus muallif korpuslari hali kam

O‘zbekiston tajribasida mualliflik korpusi masalasi hali to‘liq shakllangan mustaqil maktab darajasiga etmagan bo‘lsa-da, milliy korpus, ta’limiy korpus, morfologik analizator, sohaviy baza va terminologik resurslar atrofida shakllanayotgan ilmiy muhit bu yo‘nalish uchun mustahkam poydevor yaratmoqda. Bu poydevorning mazmuni tayyor muallif korpuslari sonida emas, korpusni barqaror axborot tizimi, izchil belgilash amaliyoti va qidiruvga yaroqli lingvistik resurs sifatida tasavvur qilish madaniyatida ko‘rinadi. Milliy korpus doirasida ishlab chiqilgan vakillik, qidiruv, teglash va tizimlilik mezonlari individual muallif korpusi uchun tashqi me’yor vazifasini bajaradi, biroq bu me’yor avtomatik ravishda muallif uslubini ochib bermaydi. Mualliflik korpusi ana shu umumiy mezonlarni torroq, filologik jihatdan chuqurroq va adabiy talqinga bevosita yo‘naltirilgan shaklda qayta tashkil etishi kerak. Bu o‘tish jarayonida umumiy korpus resurslari fon vazifasini bajaradi, muallif korpusi esa shu fon ichidan individual norma, istisno, takror va semantik moyilliklarni ajratib beradigan maxsus qatlamga aylanadi.

Ikkinchi bobning **2.2-faslida** X. To‘xtaboyev ijod namunalari mualliflik korpusini yaratish obyekti sifatida o‘rganilgan. X. To‘xtaboyev o‘zbek bolalar adabiyotida xalqona kulgi, sarguzasht, fantastika, tarbiyaviy mazmun, og‘zaki hikoyachilik, mubolag‘a va dialogik jonlilikni badiiy tizimga aylantirgan ijodkor sifatida tavsiflangan. Yozuvchining pedagogik, jurnalistik va hajviy tajribasi uning nasrida jonli dialog, qisqa replikalar, xalqona ifoda va ijtimoiy kulgining shakllanishiga ta’sir qilgani ko‘rsatilgan.

E. Tognini-Bonelli tomonidan ilgari surilgan korpusga asoslangan va korpusdan kelib chiqadigan yondashuvlar mualliflik korpusini faqat oldindan belgilangan nazariy taxminlarni tekshirish vositasi sifatida emas, balki matnning o‘zidan kelib chiqadigan yangi lingvistik kuzatuvlarni aniqlash manbai sifatida ham baholash imkonini beradi[5]. Shu sababli mazkur korpus R. Dal idiostiliga xos bo‘lgan til o‘yini, noodatiy so‘z yasalishi, ekspressiv leksika, yumor, mubolag‘a, bolalar nutqiga yaqin dialogik shakllar va fantastik tasvir vositalarini kompleks tahlil qilish uchun muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi (2-jadvalga qarang).

2-jadval

Mualliflik korpusini shakllantirish uchun tanlab olingan R. Dal asarlari

№	Asarlar	Nashr yili	Korpusga kiritish uchun asos
1	*James and the Giant Peach*	1961	R. Dal ijodiga xos ertak-fantastik nasrining dastlabki namunalaridan biri
2	*Charlie and the Chocolate Factory*	1964	Fantastik makon va bolalar dunyoqarashini tahlil qilish uchun muhim asar
3	*Charlie and the Great Glass Elevator*	1972	Bitta mualliflik sikli doirasida obrazlar va til modellari rivojini kuzatish imkonini beruvchi asar
4	*The BFG*	1982	Til o‘yini, okkazional birliklar va qahramonlarning individual nutqini tadqiq etishda muhim ahamiyatga ega asar
5	*Matilda*	1988	Muallif ijodining kechki davriga mansub bo‘lib, unda bola va kattalar dunyosi o‘rtasidagi ziddiyat, maktab diskursi hamda satirik bayon usuli yorqin namoyon bo‘ladi

Asarlarni tanlash jarayonida matnlarning reprezentativligi, janr va mavzu jihatidan o‘zaro qiyoslana olishi, leksik-uslubiy boyligi, matn hajmi, o‘ziga xos til

[5] Elena Tognini-Bonelli, Corpus Linguistics at Work. John Benjamins Publishing, 2001. p. 223

birliklarining mavjudligi hamda ularni keyinchalik raqamli shaklda qayta ishlash imkoniyati kabi mezonlar e’tiborga olindi. Bunday yondashuv tasodifiy tanlovdan qochish va korpusni ilmiy jihatdan asoslangan matnlar majmui sifatida shakllantirish imkonini beradi.

X. To‘xtaboyev subkorpusi (3-jadvalga qarang) uchun “Sariq devni minib”, “Sariq devning o‘limi”, “Besh bolali yigitcha”, “Shirin qovunlar mamlakati yoki sehrgarlar jangi” asarlari tanlangan. “Sariq devni minib” va “Sariq devning o‘limi” Hoshimjon obrazi orqali fantastik-sarguzasht bayon, kasb tanlash, ijtimoiy rollarni sinab ko‘rish va bolalarcha mantiqni ochib beradi. “Besh bolali yigitcha” Orifjon nutqi orqali urush davri bolaligi, mehnat, oilaviy mas’uliyat va hayotiy sinovlarni aks ettiradi. “Shirin qovunlar mamlakati yoki sehrgarlar jangi” esa Akbar qovunchi obrazining mubolag‘ali bayoni, o‘zini tanishtirish, laqab, metahikoya va og‘zaki hikoyachilik usuli bilan ajralib turadi.

3-jadval

Mualliflik korpusini shakllantirish uchun tanlab olingan X. To‘xtaboyev asarlari

№	Asarlar	Nashr yili	Korpusga kiritish uchun asos
1	*“Sariq devni minib”*	1968	Hoshimjon obrazining shakllanishi, birinchi shaxs bayoni, bolalar nutqiga yaqin og‘zaki hikoyachilik, yumor, fantastik-sarguzasht motivlari va dialogik nutqning faol qo‘llanishini o‘rganish uchun muhim manba hisoblanadi.
2	*“Sariq devning o‘limi”*	1968	Hoshimjon obrazining keyingi rivojlanishini, muallif uslubidagi ijtimoiy-hajviy qatlam, adolat, kasb, mas’uliyat va sarguzasht motivlarining til vositalari orqali ifodalanishini aniqlash imkonini beradi.
3	*“Besh bolali yigitcha”*	1976	Realistik va ijtimoiy-maishiy yo‘nalishini ifodalaydi. Orifjon obrazi orqali urush davri bolaligi, mehnat, oila, mas’uliyat, xalqona yumor va bolalarcha dunyoqarashning badiiy nutqda aks etishini tahlil qilishga xizmat qiladi.
4	*“Shirin qovunlar mamlakati yoki sehrgarlar jangi”*	1986	Mubolag‘ali bayon, o‘zini tanishtirish, metahikoya, og‘zaki nutqqa yaqin ifoda, laqablar, xalqona kulgi va fantastik-sarguzasht unsurlarining korpus asosida o‘rganilishi uchun tanlandi.

X. To‘xtaboyev ijodida bola qahramon ko‘pincha o‘zini oqlovchi, voqealarni o‘z foydasiga talqin qiluvchi, lekin ayni paytda samimiy va kulgili obraz sifatida gavdalanadi. Hoshimjon o‘z xatti-harakatlarini bolalarcha mantiq asosida izohlaydi; Akbar qovunchi esa yolg‘on va mubolag‘a chegarasida turuvchi hikoya usuli orqali kulgi hosil qiladi. Bunday nutqiy holatlarni korpusda alohida belgilash mumkin: o‘zini tanishtirish formulalari, o‘zini oqlash konstruksiyalari, yolg‘onni inkor etish shakllari, mubolag‘ali dalillash, tinglovchiga murojaat, voqeani cho‘zish yoki boshqa mavzuga burib yuborish kabi belgilar muallif uslubining barqaror ko‘rsatkichlari sifatida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, qahramonlarning *“men yomon bola emasman”, “rostini aytsam”, “nega desangiz”, “xullas”* kabi izohli birliklardan foydalanishi voqeani oddiy bayon qilishdan ko‘ra uni og‘zaki hikoya shaklida, suhbatga yaqin uslubda tashkil etishini ko‘rsatadi.

Mazkur faslda X. To‘xtaboyev asarlarida birinchi shaxs bayoni alohida metodologik ahamiyatga ega ekani asoslangan. Hoshimjon, Orifjon va Akbar qovunchi voqealarni o‘z nomidan hikoya qilgani sababli korpusda “men”, “menga”, “o‘zim”, “rostini aytsam”, “nega desangiz”, “xullas”, “mana shunaqa”, “qarang”,

“ishoning” kabi birliklar faqat grammatik vosita emas, balki qahramon nutqini, og‘zaki bayon ohangini va muallif idiostilini ko‘rsatuvchi kommunikativ belgilar sifatida talqin qilingan.

Ikkinchi bobning **2.3-faslida** R. Dal va X. To‘xtaboyev asarlari misolida mualliflik korpusini tuzish amaliyoti tavsiflangan. Bu faslda matnlarni yig‘ish, elektron shaklga keltirish, texnik tozalash, paratekst va asosiy badiiy matnni ajratish, bob, sarlavha, paragraf, dialog, muallif bayoni va qahramon nutqini belgilash, metama’lumotlar tizimini yaratish, tokenizatsiya, lemmatizatsiya, morfologik va semantik belgilash kabi bosqichlar izchil yoritilgan.

Korpus yaratish jarayonida corpora.softgo.uz elektron platformasi ishlab chiqilgan. Platforma “Asosiy sahifa”, “Mualliflar”, “Qidiruv”, “Loyiha muallifi” kabi bo‘limlardan iborat bo‘lib, mualliflar va asarlar haqidagi ma’lumotlarni joylashtirish, matnlarni subkorpuslar bo‘yicha saqlash, qidiruv amalga oshirish, so‘zlarning chastotasini aniqlash, yuqori chastotali birliklarni ko‘rsatish, morfologik va semantik belgilash hamda muayyan birliklarning kontekstual qo‘llanishini kuzatish imkonini beradi. Ingliz va o‘zbek bolalar adabiyoti namoyandalari R. Dal va X. To‘xtaboyev asarlari asosida mualliflik korpusi shakllantirildi. Mazkur korpus https://corpora.softgo.uz/ elektron platformasida ochiq foydalanish uchun taqdim etilgan (3-rasmga qarang).

3-rasm. https://corpora.softgo.uz/ vebsahifasiga o’tish havolasini yuklash QR kodi

Ushbu faslda o‘zbek tilining agglyutinativ xususiyati X. To‘xtaboyev subkorpusini yaratishda alohida e’tibor talab qilishi ko‘rsatilgan. O‘zbek tilida bitta leksik asos turli qo‘shimchalar orqali ko‘plab so‘zshakllarda namoyon bo‘ladi. Masalan, “qovun”, “qovunlar”, “qovunning”, “qovunni”, “qovunga”, “qovunnusxa”, “qovuntog‘” kabi shakllar bir leksik-semantik maydonga mansub bo‘lsa-da, yuzaki ko‘rinishda alohida birliklar sifatida ko‘rinadi. Shu sababli so‘zshakl, lemma, asos va qo‘shimcha munosabatini aniqlash mualliflik korpusining statistik ishonchliligi uchun zarur ekani asoslangan.

Dissertatsiyaning **uchinchi bobi “R. Dal va X. To‘xtaboyevlarning mualliflik korpusida ijodkorlar uslubi qiyosiy tadqiqi”** deb nomlanadi. Mazkur bobda ikki muallif subkorpuslari asosida leksik-statistik, leksik-semantik, sintaktik va stilometrik tahlillar amalga oshirilgan. Bob uch asosiy yo‘nalishni qamrab oladi: leksik qatlamning korpus tahlili, sintaktik shakl va munosabatlar tahlili hamda ijodiy o‘ziga xoslikning statistik asoslarini aniqlash.

Uchinchi bobning **3.1-faslida** R. Dal va X. To‘xtaboyev asarlarida leksik qatlamning qo‘llanilishiga oid korpus tahlili natijalari berilgan. Avvalo, ikki subkorpusning umumiy leksik-statistik tavsifi ishlab chiqilgan. Mazkur faslda eng yuqori chastotali birliklar tahlili ham amalga oshirilgan. R. Dal subkorpusida artikl,

predlog, olmosh va nutq fe’llarining faol qo‘llanishi ingliz tilining analitik tuzilishi, dialogik dinamika va qahramonlararo muloqotning yuqori darajasini ko‘rsatadi. X. To‘xtaboyev subkorpusida esa “ham”, “deb”, “bir”, “men”, “bilan”, “ekan”, “yo‘q”, “bo‘lib”, “olib”, “qilib” kabi birliklarning faolligi birinchi shaxs bayoni, og‘zaki hikoyachilik, izoh, o‘zini oqlash va xalqona nutq ohangining ustuvorligini ko‘rsatadi.

R. Dal subkorpusida yordamchi so‘zlar va olmoshlar ulushi yuqori bo‘lgani uchun leksik zichlik 47,65 % ni tashkil etdi. X. To‘xtaboyev subkorpusida esa bu ko‘rsatkich 85,40 % bo‘ldi. Bu farqni bevosita “bir muallifning tili ikkinchisidan boyroq” degan xulosa bilan izohlash to‘g‘ri emas. Bunda ingliz va o‘zbek tillarining tipologik xususiyatlari muhim rol o‘ynaydi: ingliz tilida artikl, predlog, yordamchi fe’l va bog‘lovchilar alohida token sifatida ko‘p uchraydi, o‘zbek tilida esa grammatik ma’nolarning katta qismi qo‘shimchalar orqali so‘z tarkibida ifodalanadi.[7]

Hisoblash jarayonida tinish belgilari va raqamlar alohida token sifatida olinmadi, bosh va kichik harflar yagona shaklga keltirildi, apostrofli shakllar bir xil ko‘rinishga keltirildi. “Takrorlanmas so‘zshakllar” deganda lemma emas, balki matnda uchragan alohida yuzaki so‘zshakllar nazarda tutildi. Shu sababli o‘zbekcha matnlarda bir asosdan yasalgan turli grammatik shakllar alohida birlik sifatida qayd etildi. Bu holat X. To‘xtaboyev subkorpusida so‘zshakllar xilma-xilligining yuqori chiqishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi (4-jadvalga qarang).

4-jadval

R. Dal va X. To‘xtaboyev subkorpuslarining umumiy statistik ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkich	R. Dal subkorpusi	X. To‘xtaboyev subkorpusi
Umumiy so‘zlar soni	166 879	209 376
Takrorlanmas so‘zshakllar soni	9 128	35 074
Faqat bir marta uchragan so‘zshakllar	3 969	19 496
TTR — type-token ratio	5,47 %	16,75 %
MSTTR-1000	40,01 %	68,73 %
Leksik zichlik	47,65 %	85,40 %

Jadvaldan ko‘rinadiki, X. To‘xtaboyev subkorpusi umumiy hajm jihatidan R. Dal subkorpusidan kattaroqdir. R. Dal subkorpusida jami 166 879 ta so‘z-token qayd etilgan bo‘lsa, X. To‘xtaboyev subkorpusida bu ko‘rsatkich 209 376 tani tashkil etadi. Demak, X. To‘xtaboyev subkorpusi umumiy tokenlar soni bo‘yicha R. Dal subkorpusidan taxminan 1,25 baravar katta. Biroq bu tafovut qiyosiy tahlilda xom sonlarga tayanish yetarli emasligini ko‘rsatadi. Shu sababli keyingi bosqichda nisbiy ko‘rsatkichlar — TTR, MSTTR-1000 va leksik zichlik alohida hisobga olindi.

Eng muhim farq takrorlanmas so‘zshakllar sonida kuzatiladi. R. Dal subkorpusida 9 128 ta takrorlanmas so‘zshakl aniqlangan bo‘lsa, X. To‘xtaboyev subkorpusida bu miqdor 35 074 tani tashkil qiladi. Bu X. To‘xtaboyev subkorpusida takrorlanmas so‘zshakllar R. Dal subkorpusiga nisbatan qariyb 3,84 baravar ko‘pligini ko‘rsatadi. Bunday katta tafovutni faqat muallif lug‘atining boyligi bilan emas, balki tillarning grammatik tuzilishi bilan ham izohlash kerak. O‘zbek tilida ko‘plik, egalik, kelishik, shaxs-son, zamon va mayl ma’nolari so‘z asosiga qo‘shimchalar qo‘shilishi orqali ifodalanadi. Natijada bir leksik asos korpusda ko‘plab so‘zshakllar ko‘rinishida qayd etiladi.

R. Dal subkorpusida TTR 5,47 % bo‘lsa, X. To‘xtaboyev subkorpusida bu ko‘rsatkich 16,75 % ni tashkil etdi. Bu dastlabki qarashda X. To‘xtaboyev matnlarida leksik xilma-xillik ancha yuqori ekanini ko‘rsatadi. Biroq TTR matn hajmiga bog‘liq bo‘lgani uchun bu natijani ehtiyotkorlik bilan talqin qilish zarur. Shu sababli MSTTR-1000 ko‘rsatkichi ham hisoblandi. MSTTR-1000 bo‘yicha R. Dal subkorpusi 40,01 %, X. To‘xtaboyev subkorpusi esa 68,73 % natija berdi. Demak, teng hajmli 1000 tokenli bo‘laklar asosida ham X. To‘xtaboyev matnlarida so‘zshakllar xilma-xilligi sezilarli darajada yuqori.

Leksik-semantik guruhlar bo‘yicha tahlilda R. Dal ijodida fantastik voqelik, sehrli predmetlar, grotesk obrazlar, g‘ayritabiiy mavjudotlar va noodatiy makon bilan bog‘liq birliklar ustuvorligi aniqlangan. *Wonka*, *BFG*, *giant*, *chocolate*, *factory*, *elevator*, *peach*, *golden ticket*, *Oompa-Loompa*, *snozzcumber*, *frobscottle*, *whizzpopping* kabi birliklar yozuvchining fantastik-satirik dunyosini shakllantiruvchi asosiy leksik qatlam sifatida talqin qilingan. X. To‘xtaboyev subkorpusida esa bola dunyosi, oila, maktab, qishloq, kasb-hunar, maishiy hayot va xalqona munosabat bilan bog‘liq birliklar faolroq ekani ko‘rsatilgan. “Bola”, “maktab”, “sinf”, “dars”, “muallim”, “baho”, “o‘qituvchi”, “oyi”, “dada”, “buvi”, “aka”, “uka”, “direktor”, “traktor”, “sartarosh”, “qishloq”, “kolxoz”, “rais”, “usta” kabi birliklar adib ijodining milliy-maishiy asosini ochib beradi.

Uchinchi bobning **3.2-faslida** R. Dal va X. To‘xtaboyev asarlari mualliflik korpusi tahlillarida sintaktik shakl va munosabatlar qiyosiy o‘rganilgan. Har ikki subkorpusda gaplar soni, o‘rtacha gap uzunligi, median gap uzunligi, qisqa, o‘rta va uzun gaplar nisbati, so‘roq va undov gaplar, dialogik replikalar hamda nutq aktini bildiruvchi birliklar tahlil qilingan. R. Dal subkorpusida 11 799 ta gap, X. To‘xtaboyev subkorpusida esa 14 958 ta gap aniqlangan. O‘rtacha gap uzunligi R. Dalda 14,02 so‘z, X. To‘xtaboyevda 13,59 so‘z sifatida qayd etilgan.

Mazkur bosqichda tahlil birliklari sifatida gaplar, dialogik replikalar, so‘roq va undov gaplar, bog‘lovchi birliklar, nutq aktini bildiruvchi fe’llar hamda takrorlanuvchi leksik-sintaktik modellar tanlandi. Hisoblash jarayonida gap chegaralari nuqta, so‘roq belgisi va undov belgisi asosida ajratildi. Dialogik nutqni aniqlashda inglizcha matnlarda qo‘shtirnoq ichidagi replikalar va nutq fe’llari, o‘zbekcha matnlarda esa tire bilan boshlangan dialogik satrlar, *“dedi”, “dedim”, “deydi”, “so‘radi”, “deb”* kabi birliklar asosiy ko‘rsatkich sifatida olindi. Bunda raqamlar mutlaq sintaktik tahlil natijasi emas, balki korpus asosida olingan yuzaki sintaktik-statistik indikatorlar sifatida talqin qilindi (5-jadvalga qarang).

5-jadval

R. Dal va X. To‘xtaboyev subkorpuslarida umumiy sintaktik ko‘rsatkichlar

Sintaktik ko‘rsatkich	R. Dal subkorpusi	X. To‘xtaboyev subkorpusi
Gaplar soni	11 799	14 958
O‘rtacha gap uzunligi	14,02 so‘z	13,59 so‘z
Median gap uzunligi	11 so‘z	10 so‘z
Qisqa gaplar, 1–7 so‘z	3 992	4 966
O‘rta uzunlikdagi gaplar, 8–20 so‘z	5 272	7 371
Uzun gaplar, 21 va undan ortiq so‘z	2 535	2 621
So‘roq gaplar	325	526
Undov gaplar	1 662	857
Dialogik satr / replika ko‘rsatkichlari	3 551	6 064
Nutq aktini bildiruvchi birliklar	4 092	1 777

Jadvaldan koʻrinadiki, X. Toʻxtaboyev subkorpusida gaplar soni R. Dal subkorpusiga nisbatan koʻproq: R. Dal matnlarida 11 799 ta gap aniqlangan boʻlsa, X. Toʻxtaboyev matnlarida bu koʻrsatkich 14 958 tani tashkil etadi. Bu avvalo X. Toʻxtaboyev subkorpusining umumiy hajmi kattaroq ekani bilan bogʻliq. Biroq oʻrtacha gap uzunligi ikki subkorpusda deyarli yaqin: R. Dalda bir gap oʻrtacha 14,02 soʻzdan, X. Toʻxtaboyevda esa 13,59 soʻzdan iborat. Demak, har ikki yozuvchi bolalar adabiyotiga xos ravishda oʻrtacha uzunlikdagi, oʻqilishi nisbatan qulay va voqea rivojini tezlashtiruvchi gaplardan faol foydalanadi.

Sintaktik tahlil shuni koʻrsatadiki, har ikki yozuvchi bolalar adabiyotiga xos jonli, dinamik va dialogga boy bayon shaklidan foydalanadi. Biroq gap uzunligi va sintaktik qurilishning uslubiy vazifasi har ikki muallifda turlicha namoyon boʻladi. R. Dalda uzunroq gaplar koʻproq fantastik voqeani harakatda tasvirlash, grotesk obrazlarni kengaytirish, vizual effekt yaratish va dialogik keskinlikni kuchaytirishga xizmat qiladi. X. Toʻxtaboyevda esa gaplar qahramonning ogʻzaki hikoyasi, izohi, oʻzini oqlashi, kulgili dalillashi va xalqona suhbat ohangini yaratish bilan bogʻliq holda namoyon boʻladi.

R. Dal subkorpusida uzun gaplar ulushi X. Toʻxtaboyev subkorpusiga nisbatan biroz yuqoriroq. Bu holat R. Dal matnlarida tasviriy parchalar, fantastik makon tavsifi, grotesk obrazlar va bir necha harakatni ketma-ket bogʻlaydigan murakkab gaplarning mavjudligi bilan izohlanadi. Ayniqsa, *James and the Giant Peach*, *Matilda* va *The BFG* asarlarida voqelik koʻpincha bir necha sintaktik boʻlaklar orqali bosqichma-bosqich tasvirlanadi. X. Toʻxtaboyev subkorpusida esa oʻrta uzunlikdagi gaplar ustun boʻlib, bu adibning ogʻzaki hikoyachilikka yaqin, suhbat ohangidagi bayon usuli bilan bogʻliq (6-jadvalga qarang).

6-jadval

Asarlar kesimida gap uzunligi koʻrsatkichlari

Asar	Gaplar soni	Oʻrtacha gap uzunligi
Charlie and the Chocolate Factory	2 243	13,82
Charlie and the Great Glass Elevator	2 540	12,32
James and the Giant Peach	1 608	16,08
Matilda	2 650	15,06
The BFG	2 759	13,53
Besh bolali yigitcha	1 684	17,40
Sariq devni minib	3 645	13,84
Sariq devning oʻlimi	4 026	13,92
Shirin qovunlar mamlakati yoki sehrgarlar jangi	5 603	12,03

Asarlar kesimidagi tahlil shuni koʻrsatadiki, R. Dal asarlari ichida eng uzun oʻrtacha gap koʻrsatkichi “*James and the Giant Peach”* asarida kuzatiladi — 16,08 soʻz. Bu asarda voqelik tasviriy, sarguzashtli va fantastik tafsilotlar bilan kengayib boradi. *“Charlie and the Great Glass Elevator”* asarida esa oʻrtacha gap uzunligi 12,32 soʻzni tashkil etadi. Bu asarda dialogik almashinuvlar, tezkor harakatlar va qisqa replikalar koʻproq boʻlgani uchun gaplar qisqaroq koʻrinadi.

Mazkur faslda soʻroq va undov gaplar ham alohida tahlil qilingan. R. Dal subkorpusida undov gaplarning koʻpligi hayrat, qoʻrquv, shovqin, dramatik keskinlik va fantastik vaziyatni kuchaytirish bilan bogʻliq. X. Toʻxtaboyev subkorpusida esa soʻroq gaplar, qisqa replikalar, savol-javob shaklidagi dialoglar va “deb/dedi/dedim” birliklari qahramonlarning jonli muloqoti, oʻzini himoya qilishi,

izoh berishi va xalqona og‘zaki nutq ritmini yaratadi.

Uchinchi bobning **3.3-faslida** R. Dal va X. To‘xtaboyev mualliflik korpuslarida ijodiy o‘ziga xoslikning statistik asoslari ishlab chiqilgan. Bu faslda oldingi leksik va sintaktik tahlil natijalari umumlashtirilib, har ikki muallif uchun differensial statistik-uslubiy profil taklif etilgan. R. Dal ijodiy modeli “fantastik-satirik va grotesk-dialogik model” sifatida tavsiflangan. Bu modelda fantastik predmetlar, g‘ayritabiiy mavjudotlar, noodatiy so‘z yasalishi, neologizm va okkazional birliklar, keskin dialoglar, nutq fe’llari va emotsional replikalar asosiy o‘rin tutadi.

Mazkur tadqiqotda R. Dal subkorpusi 166 879 token, X. To‘xtaboyev subkorpusi esa 209 376 token asosida tahlil qilindi. R. Dal subkorpusida takrorlanmas so‘zshakllar soni 9 128 tani, X. To‘xtaboyev subkorpusida esa 35 074 tani tashkil etdi. Bu ko‘rsatkichlar ikki muallif matnlarining faqat hajm jihatidan emas, balki so‘zshakl xilma-xilligi nuqtayi nazaridan ham sezilarli farq qilishini ko‘rsatadi. Biroq bunday farqni bevosita “bir muallifning lug‘ati ikkinchisidan boyroq” degan xulosa bilan izohlash to‘g‘ri emas. Chunki F. Tweedie va H. Baayen leksik boylik ko‘rsatkichlari, xususan TTR, matn hajmi va tilning tuzilishiga bog‘liq ravishda o‘zgarishini alohida ko‘rsatganlar. Shu sababli bu tadqiqotda TTR bilan birga MSTTR-1000 ko‘rsatkichi ham qo‘llandi (7-jadvalga qarang).

7-jadval

R. Dal va X. To‘xtaboyev mualliflik korpuslarining statistik-uslubiy profili

Ko‘rsatkich	R. Dal subkorpusi	X. To‘xtaboyev subkorpusi	Uslubiy talqin
Umumiy tokenlar soni	166 879	209 376	X. To‘xtaboyev subkorpusi hajman kattaroq
Takrorlanmas so‘zshakllar	9 128	35 074	O‘zbek tilining agglyutinativ tabiati ta’siri kuchli
TTR	5,47 %	16,75 %	X. To‘xtaboyevda yuzaki so‘zshakl xilma-xilligi yuqori
MSTTR-1000	40,01 %	68,73 %	Teng segmentlarda ham o‘zbekcha matnlarda shakliy xilma-xillik yuqori
Leksik zichlik	47,65 %	85,40 %	Ingliz tilida yordamchi birliklar, o‘zbek tilida qo‘shimchali shakllar ustuvor
Dialogik birliklar	4 092	6 064	Har ikki muallifda dialog muhim, lekin shakllanish usuli farqli
Eng faol uslubiy birliklar	said, you, I, he, and, but	ham, deb, men, ekan, yo‘q, qilib	R. Dalda dialogik dinamika, X. To‘xtaboyevda og‘zaki hikoyachilik kuchli

Jadvaldan ko‘rinadiki, R. Dal va X. To‘xtaboyev korpuslarida statistik ko‘rsatkichlar turli uslubiy yo‘nalishlarni ochib beradi. R. Dal subkorpusida eng yuqori chastotali birliklar orasida *the, and, a, to, of, said, you, I, he* kabi birliklar faol. Bularning bir qismi ingliz tilining analitik tuzilishini aks ettirsa, *said, you, I, he* kabi birliklar dialogik qurilish va qahramonlararo muloqotning yuqori darajasini ko‘rsatadi. Ingliz bolalar adabiyotida, ayniqsa R. Dal uslubida, dialog voqeani tezlashtirish, personajlar xarakterini ochish va fantastik vaziyatlarni jonlantirish vazifasini bajaradi.

X. To‘xtaboyev ijodiy modeli esa “xalqona-og‘zaki va yumoristik-hikoyaviy model” sifatida belgilangan. Bu modelda birinchi shaxs bayoni, qahramonning o‘zini oqlashi, xalqona iboralar, og‘zaki kirish birliklari, laqablar, qishloq, oila, maktab, kasb-hunar va maishiy hayot leksikasi etakchi vazifa bajaradi. X. To‘xtaboyevda dialogik qurilish tireli replikalar, “deb”, “dedi”, “dedim” kabi birliklar, savol-javoblar va og‘zaki izohlar orqali shakllanadi.

Uchinchi bob yakunida R. Dal va X. To‘xtaboyev ijodida umumiy bolalar adabiyotiga xos jihatlar mavjud bo‘lsa-da, ularning har biri bu umumiylikni turli lingvistik va milliy-madaniy vositalar orqali ifodalashi asoslangan. Har ikki yozuvchida bola dunyoqarashi, kulgi, hayrat, sarguzasht va kattalar dunyosiga munosabat markaziy o‘rinda turadi. Biroq R. Dal ushbu jihatlarni fantastik-satirik leksika, grotesk obraz, neologizm, okkazionalizm va dialogik dinamika orqali badiiylashtirsa, X. To‘xtaboyev xalqona og‘zaki nutq, birinchi shaxs bayoni, kulgili izoh, laqab, o‘zini oqlash formulalari va maishiy hayot leksikasi orqali ifodalaydi.

XULOSA

1. Mualliflik korpusi korpus-lingvistikasi, korpus stilistikasi, stilometriya, matnshunoslik, kompyuter leksikografiyasi va raqamli gumanitar fanlar kesishgan nuqtada shakllanadigan murakkab ilmiy obyekt ekanligi asoslandi. Bunday korpus muallif matnlarini saqlash bilan cheklanmaydi, balki muallifning leksik tanlovi, grammatik qurilmalari, dialogik modeli, obraz yaratish vositalari va badiiy-pragmatik strategiyalarini empirik dalillar asosida o‘rganish imkonini beradi. Shu bois mualliflik korpusi ijodkor uslubini subyektiv tavsiflashdan aniq matniy ko‘rsatkichlar asosida tahlil qilish bosqichiga olib chiqadi.

2. Dissertatsiyada mualliflik korpusining nazariy talqini aniqlashtirilib, mualliflik korpusi muayyan muallifga mansub matnlarning bibliografik jihatdan ishonchli, matn butunligi saqlangan, tadqiqot maqsadiga muvofiq tanlangan, metama’lumotlar bilan ta’minlangan va korpus-lingvistikasi tamoyillari asosida tizimlashtirilgan elektron majmuasi sifatida belgilandi. Ushbu majmua muallif idiostili, idiolekti, leksik-grammatik odatlari, semantik dominantlari va diskursiv xususiyatlarini ichki hamda qiyosiy tahlilda aniqlashga xizmat qiladi.

3. Tadqiqotda korpusga asoslangan va korpusga yo‘naltirilgan yondashuvlarning o‘zaro bog‘liqligi asoslandi. Korpusga asoslangan yondashuv oldindan belgilangan nazariy mezonlar asosida muallif uslubini tekshirish imkonini bersa, korpusga yo‘naltirilgan yondashuv matnning o‘zidan kelib chiqadigan yangi uslubiy naqshlar, takroriy birliklar, kollokatsiyalar va kutilmagan lingvistik munosabatlarni aniqlashga yordam beradi. Shu sababli mazkur tadqiqot misolida bu ikki yondashuv qarama-qarshi emas, balki bir-birini to‘ldiruvchi metod sifatida qo‘llanilishi mumkin.

4. R. Dal va X. To‘xtaboyev asarlari bolalar adabiyotidagi yaqin funksional maydonni ifodalasa-da, ular bir-birining tarjimasi yoki bevosita muqobili emasligi sababli, mazkur korpus qiyosiy-tipologik mualliflik korpusi sifatida baholandi. Bu yondashuv ingliz va o‘zbek bolalar nasrida bola dunyoqarashi, kulgi, sarguzasht, fantastika, tarbiya, qahramon nutqi va kattalar dunyosiga munosabatning turli

milliy-uslubiy vositalar orqali qanday ifodalanishini qiyosiy o‘rganish imkonini berdi.

5. R. Dal ijodi ingliz bolalar adabiyotida fantastik-satirik bayon, grotesk obrazlar, neologizm, okkazional birliklar, til o‘yini, dinamik dialog va bola-kattalar dunyosi ziddiyatining faol qo‘llanishi bilan ajralib turishi aniqlandi. Tadqiqot uchun tanlangan James and the Giant Peach, Charlie and the Chocolate Factory, Charlie and the Great Glass Elevator, The BFG va Matilda asarlari yozuvchining bolalar nasridagi asosiy janriy-uslubiy qatlamlarini qamrab oladi hamda uning idiostiliga xos fantastik makon, baholovchi leksika, noodatiy nomlash va dialogik dinamikani kuzatish uchun muhim matniy baza vazifasini bajaradi.

6. X. To‘xtaboyev ijodi o‘zbek bolalar adabiyotida xalqona kulgi, og‘zaki hikoyachilik, birinchi shaxs bayoni, mubolag‘a, laqablar, bolalarcha o‘zini oqlash va tarbiyaviy mazmunning uyg‘unligi bilan ajralib turishi asoslandi. “Sariq devni minib”, “Sariq devning o‘limi”, “Besh bolali yigitcha”, “Shirin qovunlar mamlakati yoki sehrgarlar jangi” asarlari Hoshimjon, Orifjon va Akbar qovunchi kabi qahramon-hikoyachilar nutqi orqali adibning individual uslubiy belgilari, xalqona ifoda vositalari va bolalar psixologiyasini aks ettiruvchi nutqiy modellarni ochib beradi.

7. Tadqiqotda corpora.softgo.uz elektron platformasi asosida mualliflik korpusining amaliy modeli tavsiflandi. Mazkur platforma matnlarni subkorpuslar bo‘yicha joylashtirish, qidiruv amalga oshirish, chastotali ro‘yxatlar hosil qilish, so‘zshakllarni tekshirish, morfologik va semantik belgilash hamda leksik-sintaktik modellarni kuzatish imkonini beradi. Bu esa korpusni oddiy elektron kutubxona emas, balki faol tahliliy muhit sifatida baholashga asos yaratadi.

8. Yuqori chastotali birliklar va so‘z turkumlari tahlili har ikki muallifning bayon strategiyasini aniqlashga yordam berdi. R. Dal subkorpusida the, and, a, to, of, said, you, I, he kabi birliklarning faolligi ingliz tilining analitik tuzilishi, dialogik nutq va qahramonlararo muloqotning yuqori darajasini ko‘rsatadi. X. To‘xtaboyev subkorpusida esa ham, bir, deb, bilan, men, ekan, yo‘q, bo‘lib, olib, qilib kabi birliklarning yuqori chastotasi og‘zaki hikoyachilik, birinchi shaxs bayoni, izoh, o‘zini oqlash va xalqona nutq ohangining ustuvorligini ko‘rsatadi.

9. Leksik-semantik guruhlar bo‘yicha tahlil R. Dal va X. To‘xtaboyev badiiy olamining mavzuviy markazlarini aniqladi. R. Dal subkorpusida fantastik voqelik, sehrli predmetlar, grotesk obrazlar, g‘ayritabiiy mavjudotlar va noodatiy makon bilan bog‘liq birliklar ustuvorlik qiladi. X. To‘xtaboyev subkorpusida esa bola dunyosi, oila, maktab, qishloq, kasb-hunar, maishiy hayot, xalqona munosabat va tarbiyaviy mazmun bilan bog‘liq birliklar faolroqdir. Bu holat R. Dal ijodida fantastik-satirik dunyo, X. To‘xtaboyev ijodida esa xalqona hayotiy muhit va og‘zaki hikoyachilik asosiy semantik maydon ekanini ko‘rsatadi.

10. Sintaktik tahlil natijalari har ikki muallif bolalar adabiyotiga xos jonli, dinamik va dialogga boy bayon shaklidan foydalanishini ko‘rsatdi. O‘rtacha gap uzunligi ikki muallifda bir-biriga yaqin bo‘lsa-da, uning uslubiy vazifasi turlicha. R. Dalda gap uzunligi fantastik voqeani harakatda tasvirlash, grotesk obrazlarni kengaytirish va dialogik keskinlikni kuchaytirishga xizmat qilsa, X. To‘xtaboyevda u qahramonning og‘zaki hikoyasi, izohi, o‘zini oqlashi va kulgili dalillash usuli bilan

bog‘liq. Dialogik birliklar va nutq aktini bildiruvchi vositalar ham R. Dalda dramatik harakatni, X. To‘xtaboyevda esa xalqona muloqot va birinchi shaxs bayonini kuchaytiradi.

11. Tadqiqot natijasida har ikki muallif uchun umumlashtirilgan statistik-uslubiy model ishlab chiqildi. R. Dal ijodiy modeli fantastik-satirik va grotesk-dialogik model sifatida tavsiflandi; unda fantastik predmetlar, g‘ayritabiiy obrazlar, noodatiy so‘z yasalishi, keskin dialoglar, emotsional replikalar va grotesk nomlash etakchi o‘rin tutadi. X. To‘xtaboyev ijodiy modeli esa xalqona-og‘zaki va yumoristik-hikoyaviy model sifatida belgilandi; unda birinchi shaxs bayoni, qahramonning o‘zini oqlashi, xalqona iboralar, laqablar, og‘zaki kirish birliklari va maishiy hayot leksikasi asosiy uslubiy belgilar sifatida ajralib turadi.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/2025.27.12.Fil.08.08
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ
ПРИ БУХАРСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ

БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

САИДОВ АКМАЛ АЗИМОВИЧ

ИССЛЕДОВАНИЕ ОСОБЕННОСТЕЙ АВТОРСКОГО СТИЛЯ НА ОСНОВЕ АВТОРСКИХ КОРПУСОВ РОАЛЬДА ДАЛЯ И ХУДОЙБЕРДИ ТУХТАБАЕВА

10.00.06 – Сравнительное литературоведение и переводоведение

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации на соискание учёной степени доктора философии (PhD)
по филологическим наукам

Бухара – 2026

Тема диссертации на соискание учёной степени доктора философии (PhD) по филологическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Академии Наук Республики Узбекистан под номером B2025.1.PhD/Fil5764.

Диссертация выполнена в Бухарском государственном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещён на веб странице Научного совета (www.buxdu.uz) и на информационно- образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	**Атабоев Нозимжон Бобожон угли** доктор филологических наук (DSc), профессор
Официальные оппоненты:	**Каршибоева Улжан Давировна** доктор филологических наук (DSc), профессор
	Кодирова Фазилат Шукуровна доктор филологических наук (DSc), профессор
Ведущая организация:	**Кокандский государственный университет**

Защита диссертации состоится «25» ноябрь 2026 года в «10⁰⁰» часов на заседании Научного совета DSc.03/2025.27.12.Fil.08.08 по присуждению учёных степеней при Бухарском государственном университете. (Адрес: 200118, г. Бухара, улица М.Икбола, 11. Тел.: +99865 221 29-14; факс: +99865 221-27-57, e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Бухарского государственного университета (зарегистрировано за №2/1134). (Адрес: 200118, г. Бухара, улица М.Икбола, 11. Тел.: +99865 221-25-87).

Автореферат диссертации разослан «12» ноября 2026 года.

(Протокол-реестр рассылки №16-22 от «12» ноября 2026 года).

О.М. Файзуллоев
Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук (DSc), профессор

М.Р. Очилова
Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор философии по филологическим наукам, профессор

З.К. Амонова
Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук (DSc), профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В мировой гуманитаристике цифровизация художественных текстов, создание авторских корпусов и стандартизация стилометрического анализа становятся важной научной инфраструктурой литературоведения. Опыт ELTeC показывает практический масштаб корпусного подхода на международном уровне: в 2017–2022 годах были сформированы основные корпуса романов на 12 языках и дополнительные корпуса на 9 языках, а по состоянию на март 2023 года в открытый научный оборот было введено более 1544 полнотекстовых романов. Тот факт, что было продано более 300 миллионов книг Роальда Даля, а его произведения переведены на 63 языка, подтверждает глобальный масштаб восприятия его творчества в области детской литературы. В сопоставлении с местом прозы Худойберди Тухтабаева в узбекском детском чтении корпусное сравнительное изучение текстов этих двух авторов обусловливает необходимость нового эмпирического осмысления транснационального литературного процесса, переводческой практики и детской прозы.

Во всём мире исследования, связанные с данной темой, развиваются в таких направлениях, как стилометрия, атрибуция авторства, корпусная стилистика, обработка естественного языка и многоязычное моделирование. Библиометрический анализ, основанный на 905 документах базы Scopus за период 1968–2021 годов, показывает, что атрибуция авторства, машинное обучение и обработка естественного языка являются наиболее активными ключевыми направлениями в стилометрии. В экспериментах PAN 2024 использование тестовых корпусов с различной степенью тематической однородности для выявления смены стиля письма на уровне абзаца в многоавторских текстах свидетельствует об усилении требований к методологическому контролю и верификации. Подобные исследования приводят к пониманию художественного текста не только как объекта интерпретации, но и как системы данных, подлежащей проверке, обработке и сравнительному моделированию. В связи с этим изучение детской прозы на основе корпусно-стилометрических методов является одним из приоритетных направлений современного литературоведения.

В нашей стране реформы, осуществляемые в целях дальнейшего укрепления статуса государственного языка, цифровизации узбекского языка и литературы, а также систематизации национального литературного наследия в электронной среде, усиливают необходимость изучения художественных текстов на основе корпусного подхода. «…для эффективной работы программ искусственного интеллекта они, прежде всего, должны в совершенстве понимать узбекский язык»… «Необходимо оцифровать литературу, сведения, статьи, отчёты, научные труды на узбекском языке, создать “Корпус узбекского языка”, чтобы искусственный интеллект мог отражать нашу национальную культуру и ценности». Следовательно, формирование электронного авторского корпуса прозы Худойберди Тухтабаева, его сравнительное изучение с корпусными данными произведений Роальда Даля,

а также эмпирическое выявление особенностей авторского стиля, лексико-семантического пласта, создания образов, текстовой структуры и переводческой интерпретации в детской прозе определяют необходимость настоящей научной работы.

Нормативно-правовые документы, принятые в последние годы, укрепляют институциональную основу данной темы. В указах Президента Республики Узбекистан от 21 октября 2019 года № УП-5850 «О мерах по коренному повышению престижа и статуса узбекского языка как государственного языка», от 20 октября 2020 года № УП-6084 «О мерах по дальнейшему развитию узбекского языка и совершенствованию языковой политики в нашей стране» определены задачи повышения престижа государственного языка, развития узбекского языка в цифровой среде и создания электронного национального корпуса узбекского языка. Постановление Президента Республики Узбекистан от 13 сентября 2017 года № ПП-3271 направлено на развитие системы издания и распространения книжной продукции, а также пропаганду культуры чтения. Постановление от 14 декабря 2020 года № 781, которым утверждена Национальная программа развития и поддержки культуры чтения в 2020–2025 годах, служит системной поддержке читательской среды детей и молодёжи. Постановление Президента Республики Узбекистан от 19 мая 2021 года № ПП-5117 «О мерах по выведению деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекистан на качественно новый уровень» расширяет методическую базу для сравнительно-литературного и переводоведческого анализа посредством популяризации изучения иностранных языков. Постановление Президента Республики Узбекистан от 12 января 2024 года № ПП-19 «О дополнительных мерах по увеличению потока туристов и дальнейшему повышению престижа нашей страны посредством широкой пропаганды изучения истории и культуры Узбекистана, узбекского языка и литературы в зарубежных государствах» непосредственно связано с задачами продвижения узбекского языка и литературы на международном уровне.

Кроме того, постановления Кабинета Министров Республики Узбекистан от 3 марта 2020 года № 117 «О мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои», от 11 марта 2020 года № 139 «О мерах по дальнейшему повышению эффективности фундаментальных и прикладных исследований по узбекскому языку и литературе» также служат важной правовой основой для научных исследований в данном направлении.

Настоящее диссертационное исследование, посвящённое сравнительному изучению творчества Р. Даля и Х. Тухтабаева на основе корпусного подхода, в определённой степени служит реализации задач, обозначенных в указанных нормативно-правовых документах.

Связь исследования с приоритетными направлениями развития науки и технологий Республики. Исследование выполнено в рамках I приоритетного направления развития науки и технологий Республики — «Формирование системы социальных, правовых и экономических

инновационных идей информационного общества и демократического государства, а также путей их реализации».

Степень изученности проблемы. Вопросы литературной корпусной лингвистики и корпусной стилистики исследовались в трудах зарубежных учёных Т. Макэнери, А. Харди, Д. Бибера, С. Конрада, Р. Реппена, С. Ханстон, Э. Тоньини-Бонелли, Э. Семино, М. Шорта, М. Мальберг, Д. Гувера, Дж. Берроуза, Э. Стамататоса, П. Юолы и М. Эдера[1].

В государствах Содружества Независимых Государств научно-теоретические основы корпусной лингвистики и корпусной идиостилистики изучались В. Захаровым, С. Богдановой, Е. Корниенко, Т. Литвиновой, Л. Кузьминой и Л. Шестаковой. Кроме того, исследования по вопросам авторской атрибуции и корпусного описания идиостиля проводились З. Резановой, А. Романовым, Р. Мещеряковым, А. Хоменко и П. Паничевой[2].

В Узбекистане теоретико-методические вопросы создания корпусов узбекского языка и их лингвистического обеспечения рассмотрены А. Эшмуминовым, Д. Ахмедовой и Г. Тоировой. В частности, по вопросам авторского корпуса научные исследования проводили Ш. Хамроева, Ж. Лутфуллаев и Р. Тулабаева[3]. В отечественном корпусном языкознании такие

---

[1] McEnery T., Hardie A. Corpus Linguistics: Method, Theory and Practice. – Cambridge: Cambridge University Press, 2012. URL: doi.org; Biber D., Conrad S., Reppen R. Corpus Linguistics: Investigating Language Structure and Use. – Cambridge: Cambridge University Press, 1998. URL: doi.org; Hunston S. Corpora in Applied Linguistics. – Cambridge: Cambridge University Press, 2002. URL: cambridge.org; Tognini-Bonelli E. Corpus Linguistics at Work. – Amsterdam, Philadelphia: John Benjamins, 2001. URL: doi.org; Semino E., Short M. Corpus Stylistics: Speech, Writing and Thought Presentation in a Corpus of English Writing. – London, New York: Routledge, 2004. URL: doi.org; Mahlberg M. Corpus Stylistics and Dickens's Fiction. – London, New York: Routledge, 2013. URL: doi.org; Hoover D. Corpus Stylistics, Stylometry, and the Styles of Henry James // Style. – 2007. – Vol. 41, No. 2. – P. 174–198. URL: jstor.org; Burrows J. "Delta": A Measure of Stylistic Difference and a Guide to Likely Authorship // Literary and Linguistic Computing. – 2002. – Vol. 17, No. 3. – P. 267–287. DOI: 10.1093/llc/17.3.267. URL: doi.org; Stamatatos E. A Survey of Modern Authorship Attribution Methods // Journal of the American Society for Information Science and Technology. – 2009. – Vol. 60, No. 3. – P. 538–556. DOI: 10.1002/asi.21001. URL: doi.org; Juola P. Authorship Attribution // Foundations and Trends in Information Retrieval. – 2008. – Vol. 1, No. 3. – P. 233–334. DOI: 10.1561/1500000005. URL: doi.org; Eder M. Mind Your Corpus: Systematic Errors in Authorship Attribution // Literary and Linguistic Computing. – 2013. – Vol. 28, No. 4. – P. 603–614. URL: doi.org

[2] Захаров В. П., Богданова С. Ю. Корпусная лингвистика: учебник для студентов гуманитарных вузов. – Иркутск: ИГЛУ, 2011. URL: pureportal.spbu.ru; Захаров В. П. Пролегомены к корпусной лингвистике // Вопросы психолингвистики. – 2016. – № 28. – С. 150–161. URL: cyberleninka.ru; Корниенко Е. Р. Идиолект и идиостиль: к вопросу о соотнесении понятий // Филология: научные исследования. – 2019. – № 1. URL: cyberleninka.ru; Литвинова Т. А. Идиолект как объект корпусной идиолектологии: к становлению нового лингвистического направления // Ученые записки Новгородского государственного университета. – 2019. – № 7(25). – С. 1–5. URL: portal.novsu.ru; Резанова З. И., Романов А. С., Мещеряков Р. В. О выборе признаков текста, релевантных в автороведческой экспертной деятельности // Вестник Томского государственного университета. Филология. – 2013. – № 6(26). – С. 38–52. URL: journals.tsu.ru; Хоменко А. Лингвистическое моделирование как основа для создания полуавтоматического атрибуционного алгоритма // Политическая лингвистика. – 2022. – № 3(93). – С. 90–100. URL: politlinguistika.ru; Panicheva P., Litvinova T. Authorship Attribution in Russian in Real-World Forensics Scenario // Statistical Language and Speech Processing. – 2019. – P. 299–310. DOI: 10.1007/978-3-030-31372-2_25. URL: doi.org; Kuzmina L. The National Corpus of the Russian Language as a Tool for Studying Precedent Signs of High Culture with the Source Sphere Russian Classical Literature // Philology. Theory & Practice. – 2022. – Vol. 15, No. 9. – P. 2860–2869. DOI: 10.30853/phil20220498. URL: doi.org; Shestakova L., Kuleva A. Author Lexicography in the Digital Age // Terra Linguistica. – 2023. – Vol. 14, No. 3. – P. 94–113. DOI: 10.18721/JHSS.14308. URL: doi.org

[3] Эшмўминов А. А. Ўзбек тили миллий корпусининг синоним сўзлар базаси. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Қарши, 2019. URL: diss.natlib.uz; Ахмедова Д. Б. Атов бирликларини ўзбек тили корпуслари учун лексик-семантик теглашнинг лингвистик асос ва моделлари. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Бухоро, 2020. URL: diss.natlib.uz; Тоирова Г. И. Ўзбек тили миллий корпусини яратишнинг назарий ва амалий масалалари. Филология фанлари доктори (DSc)

направления, как авторский корпус, национальный корпус, диахронический корпус, учебный корпус, параллельный корпус, база идиом и система контекстного поиска, разработаны в исследованиях Ш. Хамроевой, А. Рахмановой, Н. Атабоева, Г. Бегматовой, У. Холиярова, Р. Каримова, А. Ахмедовой и З. Хаиткулова[4] в качестве самостоятельных научных объектов.

Связь темы диссертации с научно-исследовательскими работами высшего образовательного учреждения, в котором выполнена диссертация. Диссертационная работа выполнена в рамках научных исследований кафедры английского литературоведения и переводоведения факультета иностранных языков Бухарского государственного университета по теме «Современные решения проблем литературоведения и перевода».

Цель исследования состоит в выявлении особенностей, присущих стилю Р. Даля и Х. Тухтабаева, посредством создания их авторских корпусов.

Задачи исследования:

раскрыть практику создания авторских корпусов в корпусной лингвистике, её значение и принципы на основе анализа существующих авторских корпусов;

описать практику создания авторского корпуса на примере образцов творчества Р. Даля и Х. Тухтабаева;

эмпирически изучить результаты корпусного анализа, относящиеся к употреблению лексического пласта в произведениях Р. Даля и Х. Тухтабаева;

осуществить анализ синтаксических форм и отношений в рамках анализа авторского корпуса произведений Р. Даля и Х. Тухтабаева;

описать статистические основания творческого своеобразия в авторских корпусах Р. Даля и Х. Тухтабаева.

В качестве объекта исследования выбраны произведения Р. Даля “James and the Giant Peach” («Джеймс и гигантский персик»), “Charlie and the Chocolate Factory” («Чарли и шоколадная фабрика»), “Charlie and the Great Glass Elevator” («Чарли и большой стеклянный лифт»), “The BFG” («БДВ, или Большой и добрый великан»), “Matilda” («Матильда»), а также произведения Х. Тухтабаева “Sariq devni minib” («Верхом на жёлтом диве»), “Sariq devning

диссертацияси. – 2024. URL: diss.natlib.uz; Хамроева Ш. М. Ўзбек тили муаллифлик корпусини тузишнинг лингвистик асослари. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Қарши, 2018. URL: diss.natlib.uz; Лутфуллаев Ж. А. Ўзбек болалар адабиёти романчилигининг тараққиёт тамойиллари ва Худойберди Тўхтабоев ижоди. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – 2024. URL: diss.natlib.uz; Тўлабаева Р. С. Худойберди Тўхтабоев романларида бадиий психологизм. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – 2021. URL: diss.natlib.uz

[4] Xamroyeva Sh. M. O‘zbek tili mualliflik korpusini tuzishning lingvistik asoslari. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Buxoro, 2018. – 252 b. URL: diss.natlib.uz; Raxmanova A. A. O‘zbek tili milliy korpusini yaratishdagi kompyuter usullari. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2021. – 161 b.; Begmatova G. X. O‘zbek milliy korpusida idiomalar bazasini yaratish. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Termiz, 2021. – 143 b.; Xoliyorov O‘. M. O‘zbek tili ta’limiy korpusini tuzishning lingvistik asoslari. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Termiz, 2021. – 181 b.; Karimov R. A. O‘zbek-ingliz parallel korpusini tuzishning lingvistik va dasturiy masalalari. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Buxoro, 2022. – 148 b.; Axmedova A. N. Parallel korpusda o‘xshatishlarning leksik-semantik munosabatlari (inglizcha-o‘zbekcha, o‘zbekcha-inglizcha parallel matnlar misolida). Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2021. – 151 b.; Xaitqulov Z. X. Tarjimani avtomatlashtirishda parallel korpus kontekstual qidiruv tizimining funksional mohiyati. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2024. – 178 b.

o‘limi” («Конец жёлтого дива»), “Besh bolali yigitcha” («Паренёк с пятью детьми»), “Shirin qovunlar mamlakati yoki sehrgarlar jangi” («Страна сладких дынь, или Битва волшебников»).

Предмет исследования составляют употребление лексического пласта в авторском корпусе Р. Даля и Х. Тухтабаева как представителей детской литературы, а также анализ творческого своеобразия на основе синтаксических форм и отношений.

Методы исследования. В диссертации использованы корпусно-лингвистический метод, метод описания, методы сопоставления и логического обобщения, компонентный, эмпирический и концептуальный методы анализа.

